

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



**FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi
4- “A” kurs ta‘lim oluvchisi

**BOYNAZAROVA DILFUZA ULUG‘BEK QIZINING
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: “ADABIYOT DARSLARIDA GRAFIK
ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH”**

Ta‘lim oluvchi:	D.Boynazarova
Ilmiy rahbar:	f.f.n., F.Salayev, N.Allamberganova
Kafedra mudiri:	f.f.n., dots. S.Matyakupov

*O‘zbek tili va O‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining 2018-yil
30-maydagi 5- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

NUKUS – 2018

Boynazarova Dilfuza Ulug‘bek qizining “Adabiyot darslarida grafik organayzerlardan foydalanish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «____» ball («____%») qo‘yildi.

«____» _____ 2018- yil

DAK kotibasi:

Sh.Aldasheva

MUNDARIJA:

KIRISH. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi	3
I BOB. ADABIYOT DARSLARI VA ADABIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI	
1.1. Adabiyot darslari va adabiyot o'qituvchisi.....	8
1.2. Adabiyot darslarida qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari.....	13
II BOB. ADABIYOT DARSLARIDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH	
2.1. Grafik organayzerlar – ta'lim berish vositasi sifatida.....	23
2.2. Adabiyot darslarida grafik organayzerlardan foydalanish.....	36
III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI	
3.1. Mavzuni ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar.....	45
3.2. Dars ishlanmasi.....	47
XULOSA	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.	57

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri yosh avlodni komol inson, yuksak ma'naviyatli, vatanparvar, chuqur bilimli, ijodkor va har tomonlama faol qilib tarbiyalashdir. "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir",-deyiladi muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida.

Darhaqiqat, hozirgi ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri o'quvchilarni mustaqil fikrlay oladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Xususan, yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, mavjud imkoniyatlardan eng qulay va serunumini tanlay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlarimiz, udum va an'alarimiz ruhida tarbiyalashda adabiyot fanining tutgan o'rni hamda imkoniyatlari benihoya katta.

Yangi pedagogik texnologiya "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida olib borilayotgan tub islohotlar asosiy yo'nalishlarining bosh harakatlantiruvchi kuchidir. Yangi pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, bunda 3-ming yillikdan tub burilishlar, o'qituvchi faoliyatini yangilab, o'quvchilarda hur fikrlilik, mustaqillik, bilimga chanqoqlik, vatanga muhabbat, insonparvarlik, ma'naviy va ruhiy barkamollikni tizimli ravishda shakllantiriladi.

Pedagogik texnologiyalarning alohida bir ko'rinishi bo'lgan grafik organayzerlardan foydalanish adabiyot darslarining samaradorligini oshiruvchi omillardan sanaladi. Chunki chizma va jadvallarda ma'lumotlarni ixcham va aniq ifodalash imkoniyati katta. Shu bilan birga axborotlarning turli organayzerlarda ifodalanishi uning o'quvchi xotirasida mustahkam saqlanishiga imkon beradi. Shu bois ham adabiyot darslarida bunday ta'lim vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish davr talabidir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda adabiyotdan dars mashg'ulotlari va unini tashkil qilishda qo'llanadigan vositalar yangilandi, imkoniyatlar kengaydi. Bu hol adabiy ta'limda adabiyot darslarini tashkil etishda yangicha talablarlarni vujudga keltirmoqda. Shuningdek, hozirgacha ta'lim tizimida o'zbek adabiyoti o'qitishning turli masalalariga bag'ishlab tadqiqotlar olib borildi. O'zbekiston Milliy universiteti, Nizomiy nomidagi TDPUning tegishli kafedralari o'qituvchi va tadqiqotchilari tomonidan adabiyot o'qitishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan metodik maqolalar to'plamlari, darslik va qo'llanmalar chop etildi.¹ Professor B.To'xlievning adabiyot o'qitish metodikasi borasidagi qator ilmiy ishlari, professor Q.Yo'ldoshevning "Adabiyot o'qituvchisiga metodik yordam" turkumidagi risolalari, Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasini tomonidan chop qilingan maqolalar to'plamlari, ushbu kafedra tashkil qilgan "Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, shuningdek, respublikamizda nashr qilinayotgan "Til va adabiyot ta'limi", "O'zbek tili va adabiyoti" kabi manbalarda metodist olimlar va adabiyot o'qituvchilari tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Ajiniyoz nomidagi o'zbek adabiyoti kafedrasining "2015-2020 yillarga mo'ljallangan BMI mavzulari banki" istiqbol rejasiga muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Adabiyot darslarida grafik organayzerlardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Bitiruv malakaviy ishini yoritish davomida:

¹ Bu haqda qarang: To'xliev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 2006; Filologik talimda innovatsion texnologiyalar. T., 2004; O'zbek adabiyotini o'qitishning dolzarb muammolari. T., 1997; Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T., 1996; Filologik talim masalalari. T., 2007.

- grafik organayzerlarning turlari va ularni dars davomida qo'llash afzalliklarini ko'rsatib berish;

-adabiyot darslarida grafik organayzerlardan foydalanish usul va uslublarini yaratish;

-nasriy asarlarni o'rgatishda grafik organayzerlarning o'rni va ahamiyatini aniqlash;

-grafik organayzerlar bilan bog'liq nazariy ma'lumotlarni o'qituvchilar e'tiboriga havola qilish usullarini bo'yicha tavsiyalar berish;

- grafik organayzerlardan foydalanilgan holda tashkil qilinadigan adabiyot darslarining o'ziga xosliklarini aniqlash va shu asosda tavsiyalar berish ilmiy-tadqiqot ishining asosiy vazifalari sifatida belgilab qo'yildi.

Tadqiqotning obyekti. Adabiyot darslarini tashkil etish haqidagi ilmiy ishlar, maktab dastur va darsliklari mazkur ishga jalb qilindi.

Tadqiqotning predmeti. Umumta'lim maktablari dastur va darsliklaridan joy olgan mavzular yuzasidan grafik organayzerlarni qo'llash usullarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.

Bitiruv malakaviy ishini yozishda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning va hurmatli prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev asarlari va nutqlarida milliy mafkura va milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlar til, o'zlikni anglash, madaniy meroslarga munosabat, ajdod-u avlodlarimizga ehtirom borasida bildirgan fikr-mulohazalari hamda adabiyot o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlar metodologik asos vazifasini o'tadi.

Malakaviy-bitiruv ishni yozish davomida kuzatish, tavsiflash, qiyoslash, tahlil qilish kabi usullardan keng foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda o'zbek adabiyoti o'qitish nazariyasi va metodikasidagi mavjud qarashlar asosida adabiyot darslarida grafik organayzerlardan foydalanish haqidagi fikrlar umumlashtirilib, chuqur ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi. Bunda:

-adabiyot darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar bo'yicha munosabat bildirildi;

-hajman katta nasriy asarlarni o'qitishdagi murakkabliklar aniqlanib, o'quvchilar ongiga yetkazish usullari o'rganildi.

-adabiy ta'limda grafik organayzerlarning o'rni va ahamiyati haqidagi fikrlar umumlashtirildi;

-adabiyot darslarida grafik organayzerlardan foydalanishning o'ziga xosliklari tadqiq qilindi hamda shu asosda o'qitish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy qimmatini adabiyot darslarida grafik organayzerlardan foydalanishga bag'ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil materiallari umumta'lim maktablarining adabiyot darslarida grafik organayzerlardan foydalanish masalalariga oydinlik kiritadi va o'rgatishda adabiyot o'qituvchilari uchun manba bo'la oladi. Shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazishda ham tadqiqot materiallaridan unumli foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. BMI Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI o'zbek adabiyoti kafedrasi yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Tadqiqot natijalari yuzasidan Nukus shahri 38-maktab pedagogik kengashida ma'ruza qilingan va ochiq dars o'tkazilgan.

Ishning tuzilishi va hajmi. BMI uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 58 sahifani tashkil qiladi.

I BOB. ADABIYOT DARSLARI VA ADABIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

1.1. Adabiyot darslari va adabiyot o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasida so'zlagan nutqlarida, jumladan, shunday degan edilar: "Tarbiyachilarning o'zlariga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O'qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak"².

Darhaqiqat, adabiyot o'qituvchisi o'quvchilardagi mustaqillikni, ijodkorlikni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Bu undan har bir o'quvchidagi alohida xususiyatlarni juda mukammal darajada sezishni, uning adabiyotga bo'lgan havasini oshirishda foydalanishini taqozo etadi. Zero, "O'quvchilarning o'z o'qituvchilarini tinglashlari uchun, o'qituvchining o'zi o'quvchilarini, olamning ko'povozliligini tinglay olishi shart"³.

Abdulla Avloniy inson shaxsining kamol topishida, uning tarbiyasida muhim bo'lgan bir qator omillarni sanaydi: "Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? – degan savol keladur. Bu savolga, birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur",- deb javob beradi. Ammo o'sha davrdagi o'qituvchi va mudarrislarga e'tirozlarini ham aytib o'tadi: "Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o'qumagan usuli ta'lim, ko'rmagan muallimlarni aytursizmi? Avval o'zlari dorulmuallimin"larda o'qumaklari so'ngra dars bermaklari lozimdur"..... "Matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari

² Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida so'zlagan nutqi, 1997 yil 29 avgust.- // . Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq, 1997, 7-bet.

³ Ayzerman A.S. Ispitaniye doveriyem zapiski uchitelya. - M.: - Prosvesheniye, 1991 s.188.

beimtihon, isloh yaqinidan yurmagan mudarrisni aytursizmi? Bular o'z vazifalarini bilub, nafslaridin kechub, zamong'a muvofiq ravishda darslarini isdiloh qilub, imtihon birla o'qutmaklari lozimdur"...⁴ Boshqa bir o'rinda esa u shunday yozadi: "Ilm o'rganmak, olim bo'lmak uchun maktabga kirmak, muallimdan ta'lim olmak lozim, aqlsiz kishilar na maktabga kirar va na muallimni bilur"⁵.

Abdulla Avloniyning tarbiya turlari borasidagi qarashlari ham e'tiborlidir. U jismoniy tarbiya (badan tarbiyasi), aqliy tarbiya (fikr tarbiyasi), Axloqiy tarbiya (axloq tarbiyasi) borasida alohida-alohida to'xtab o'tadi.

O'qituvchi shaxsi haqida gap ketganda V.G.Belinskiyning quyidagi fikrlarini nazardan qochirmaslik zarur: "Bola tarbiyalash uchun sizga topshirilgan: shuni unutmangki, u o'smir, keyin esa yigit bo'lib yetishadi, qarabsizki, erkak ham bo'lib qoladi, shu boisdan uning qobiliyati takomilini kuzatib boring hamda, shunga ko'ra, tarbiya usullaringizni o'zgartiring, undan hamisha yuqori turing; aks holda, holingizga voy: bola siz bilan yuzma-yuz turib ustingizdan kuladi. Uni o'rgatar ekansiz, o'zingiz yana ham ko'proq o'rganing, aks holda, u sizni ortda qoldirib ketadi: bolalar tez o'sishadi"⁶.

O'qituvchining o'zi o'qitayotgan fan asoslarini mukammal bilishi, bilganlarini o'quvchilariga yetkaza olish darajasigina emas, hatto uning o'zini tutishi, nutqi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. M.V.Klarin bu haqda shunday deydi: "o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan pauzaning davomiyligi singari "mayda narsa" o'quv dialogining, sinfdagi o'zaro hamkorlikning xarakteriga sezilarli ta'sir o'tkazadi"⁷. Xuddi shu fikrlarni davom ettirib boshqa bir psixolog – metodist Y.V.Korotaeva shunday yozadi: "Agar "javobni kutuvchi pauza" o'qituvchi tomonidan uch sekunddan besh sekundgacha cho'zilsa, mulohazalar

⁴ – Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildli. 2-jild, Pandlar, ibratlar, nabilar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari.. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi B. Qosimov. – Toshkent, Ma'aviyat, 1998. 9-bet., 37-bet.

⁵ O'sha kitob, 41-bet.

⁶ Belinskiy V.G. Adabiy orzular. Adabiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977, 35-bet.

⁷ Klarin M.V. Innovatsionnie modeli obucheniya v zarubejnix poiskax. – M., 1994. – S. 193

soni ortadi, javoblarning davomiyligi ko'payadi, o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchlari ko'tariladi, ularning mulohazalarida dalillar kuchayadi, muhokamaga o'qish darajalari unchalik yuqori bo'lmagan o'quvchilar ham qo'shila boshlaydi, bolalar orasidagi o'zaro hamkorlik kuchayadi va boshqalar"⁸.

Yirik metodist olim A.Zunnunov ta'kidlaganiday: "Adabiyot o'qituvchisi o'zini o'quvchilarga baxshida etishi, o'zi bajarayotgan ishning xalq ma'naviy hayotidagi ahamiyatini, har bir inson badiiy adabiyotsiz kamolotga erisha olmasligini o'z o'quvchilari ongiga, qalbiga singdirishi lozim. O'qituvchilik kasbi har bir adabiyot o'quvchisidan o'zini doimiy suratda kamol toptirib, o'zida badiiylikka moyillikni va ijodkorlikni o'stirib borishni talab etadi. U egallagan kasb jamiyatdagi ijtimoiy tuzum, ideologiya va madaniy hayotga bog'liq holda yangi ma'noga ega bo'lib boradi"⁹.

Adabiyot o'qituvchisining asosiy kasbiy-pedagogik faoliyati qirralarini alohida o'rgangan R.Keldiyorov bu soha egalarida badiiy ijrochilik mahoratining mavjudligiga alohida e'tibor qaratadi¹⁰. "Badiiy ijrochilik o'quvchiga hayot lavhalarida, adabiy asarning sirli manzaralarida go'zallikni ko'rsatishdan iborat. Bu borada har bir dars qayta takrorlanmaydigan o'ziga xos ijodiy jarayon bo'lib, o'qituvchi uning muallifi, ijrochisi, rejissyori sifatida o'z mahoratini namoyon etadi". Bu esa "o'quvchilarning estetik zavqini oshiradi, ularning tafakkurini, his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ma'naviyatini shakllantiradi".

Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot ta'lim oluvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirish yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta sekin o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars

⁸ Korotayeva Ye.V. Osobennosti rechevogo vzaimodeystviya uchitelya i uchashixsya. - // Russkiy yazik v shkole, - 2001, 1, s.7

⁹ A.Zunnunov va boshqalar. Adabiyot o'qitish nazariyasi va metodikasi . 74-75-betlar

¹⁰ Keldiyorov R. Adabiyot o'qituvchisi faoliyatining muhim qirrasini. - // Til va adabiyot ta'limi, 1998, 1-son, 41-44-betlar.

o‘tish ishlariga bo‘shatib bermoqda.

Bilim qanchalik mustahkam bo‘lsa, ta‘lim oluvchi dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Hozirgi kunda ta‘lim oluvchilar uchun informatsion savodxonlik ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Oliy ta‘lim tizimida davlat talablariga muvofiq, mazkur ta‘lim muassasalari ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so‘ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma‘naviyatli, kasb- hunarli, Ona Vatanga sadoqatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ardoqlaydigan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o‘z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish ta‘lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishni taqazo etadi. Ta‘lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki uni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Bugungi o‘qituvchi tayyor elektron resurslar yordamida dars o‘tish bilan chegaralanmasdan balki, ta‘limiy resurslarni yaratish hamda uni amalda qo‘llovchi o‘qitishning zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini ta‘lim oluvchilarga yetkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim.

Ta‘lim tizimini modernizatsiyalashda ta‘limning barcha bo‘g‘inlarida tobora faol qo‘llanilayotgan ilg‘or pedagogik texnologiyalarning turli yo‘nalishi ta‘lim oluvchilarning ma‘naviy kuchi, qobiliyatlarini ochish uchun maqbul sharoit yaratib bermoqda. Ta‘lim tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta‘lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qilayotganligi barchamizga ma‘lum. Ayniqsa, ta‘lim jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan,

texnologiya, axborot, kompyuter, multimedia, internet, masofali o'qitish, yagona axborot muhiti va shunga o'xshash axborot-kommunikatsion texnologiyalarning zamonaviy vositalaridan foydalanish o'zining samarasini bermoqda. Shu o'rinda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish, berilayotgan bilimlarni tushunish darajasi, xotirada saqlash va uni qo'llash imkoniyatlarini yuksaltirish maqsadida interfaol elektron doskalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda qo'l keladi. Bunda foydalanayotgan texnologiyalarni barcha imkoniyatlari mujassamlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashtirib borishi dars berish jarayonida qo'llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarni turli yo'nalish va maqsadlarda qo'llanilayotganligiga bog'liq.

Bugun ta'lim tizimida hayotga tadbqiq etilayotgan islohatlarning barchasi tub mazmun-mohiyati bilan yoshlarimizning yurt ravnaqi uchun fidoiy, izlanuvchan bo'lib yetishmog'iga qaratilgan. Chunki yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay olish va ularda eng oliy insoniy fazilatlarni tarbiyalay olish buyuk kelajagimizni yaratishdir.

1.2. Adabiyot darslarida qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari

Hozirgi ta'lim tizimida bilimlarni egallashning yangi konsepsiyasi – noan'anaviy ta'lim texnologiyalarning uslublarini qo'lashni taqozo etmoqda. Ta'lim jarayonini bir tizim deb olsak, uni tashkil etuvchi elementlariga quyidagilar kiradi: o'quv maqsadi, kutilayotgan natijalar, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim mazmuni, ta'lim metodi (usuli), ta'lim shakli, ta'lim vositalari, nazorat va baholash. Ta'lim jarayonini loyihalashda ana shu elementlardan loqal bittasi chetda qolsa yoki to'g'ri tanlanmagan bo'lsa tizim ishlamaydi, demakki, maqsadga erishib bo'lmaydi.

O'quv – tarbiya jarayonlarini tashkil etishda an'anaviy usullardan farqli o'laroq, yangicha pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash zamon talabidir. Milliy dasturda bu masalaga alohida e'tibor berilgan.

Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi ko'pchilik olimlarning nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda turlicha talqin etiladi. Jumladan, T.N.Ballo noan'anaviy ta'lim texnologiyani “amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan tizim loyihasi” deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. V.I.Davidova esa noan'anaviy ta'lim texnologiyasining “fan va amaliyot orasidagi muayyan tamoyillarni olg'a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan mustaqil fan”¹¹ bo'lishi lozimligini qayd etadi.

Masalan, “Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari” o'quv qo'llanmasida O'.Q.Tolipov tomonidan interfaol usullar va ularning tavsifiga quyidagi ta'rif bergan : “Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta'lim oluvchir faoliyatini nazorat qilish,

¹¹В.И. Давидова. Управление процессом усвоения знаний.-Москва.:Изд-во МГУ, 2004.-с.13.

ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi".¹²

Metodist olim R.Ishmuhammedov - "pedagogik jarayonining samarali va natijali bo'lishini ta'minlaydigan interaktiv uslublarning o'zaro harakat turlarini guruhlarga bo'lib chiqish lozim deb ta'kidlaydi: o'qituvchi - ta'lim oluvchi ; ta'lim oluvchi - ta'lim oluvchi ; ta'lim oluvchi-o'qituvchi ;"¹³

Bizning nazarimizda noan'anaviy ta'lim texnologiyalari - ehtiyojdan kelib chiqqan ijtimoiy buyurtma bo'lib, ta'limning maqsad va mazmuniga asoslanib o'quv jarayonini loyihalashtirish va shu loyiha asosida ta'limni tashkil eitshdan iborat pedagogik jarayondir..

Demak, ta'lim texnologiyalarini shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

1. An'anaviy.
2. Noan'anaviy.

An'anaviy ta'lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'qitishning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalarining majmuidan foydalanib ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir.

An'anaviy yondashuv. Uning asosiy xususiyati – o'qituvchi ma'lum axborotni gapirib beradi, tushuntiradi, ta'lim oluvchi esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Ta'lim oluvchida bilim bor-yo'qligi imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi. Bunda bilim degani asosan esda qoldirishning natijasidir, u ko'pincha yuzaki bo'lishi ham mumkin. Bunday bilim xotirada uzoq saqlanmaydi. Ta'lim oluvchi savol berilganda eslashi, ba'zan eslay olmasligi ham mumkin.

¹²Ў.Қ. Толипов,М. Усмонбоева.Педагогик технологияларнинг тадбикий асослари.Т: "Фан" 2006й. 73 бет

¹³Р.Ишмухаммедов ва бошқалар "Таълимда инновацион технологиялар" Т:"Истеъдод" 2008й. 54бет

An'anaviy o'qitish usulida ta'lim maqsadi dastur talabiga binoan aniq ifodalanmaydi, ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasi, sifati haqida muallim aniq tasavvurga ega bo'lmaydi.

An'anaviy ta'lim mamlakatimizning o'quv yurtlarida keng tarqalgan, uning turli jihatlari pedagogika, metodika fanlarida ishlab chiqilgan, katta tajriba to'plangan. An'anaviy ta'lim usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etayotir. Lekin uning ob'ektiv imkoniyatlari cheklangan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan fan-texnika talablari – ta'lim usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, barkamol avlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji o'rtasida nomutanosiblikni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yangi yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim. An'anaviy pedagogikada metodik ishlanmalar o'qituvchi dars o'tishi uchun tuzilsa, pedagogik texnologiya – o'quvchini o'quv-bilish faoliyatining shakllari va mazmunini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyahasini ishlab chiqishni taklif etadi.

Noan'anaviy pedagogika – hozirgi kunda norasmiy fan sifatida ma'lum bo'lgan, biroq kun sayin butun jahon soha mutaxassislarining e'tiboriga tushib, jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta'limiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi, olimlar, shu boisdan ham mavjud an'anaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar.

Hozirgi kunlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilyapti, uning asosiy vazifasi hukmron bo'lib turgan butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishdir.

Noan'anaviy pedagogika-hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innovatorlar fikriga asosan odatiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas.

Hozirgi pedagogik fandagi vaziyat umumiy holda shundan iborat. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhim. Pedagogika – bilimlar tizimidir. Ob’ektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik, bir-biriga zid bo‘lmaslik – uning asosiy karakteristikalaridir. Pedagogika tizimini har qanday ilmiy nazariya kabi tizimini tashkil etuvchi tamoyillari loyihalashtiradi, birlashtiradi va ushlab turadi ya’ni ushbu tizim asosiy bilimlarga asoslanishi tabiiy holdir.

Noan’anaviy ta’lim texnologiyaning muhim belgisi – maqsad hosil qilish jarayonidir. An’anaviy pedagogikada “pedagogik maqsad” masalasiga nazariyachilar ham, amaliyotchilar ham kam e’tibor beradi, maqsad – metodik adabiyotlarda ham noaniq ifodalanib, unga erishish darajasi ham sub’ektiv baholanadi.

Noan’anaviy ta’lim texnologiyasida¹⁴ – pedagogik maqsadni aniqlash asosiy muammo bo‘lib, maqsadni diagnostik ifodalash, bilim o‘zlashtirish sifatini ob’ektiv baholash nazarda tutiladi. Nihoyat, ta’lim-tarbiya jarayonlari tuzilishi va mazmuni jihatidan yaxlitligi – ta’lim texnologiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishning muhim prinsipi hisoblanadi. Yaxlitlik printsiipi, shuningdek, ta’limning har turi bo‘yicha bo‘lajak pedagogik tizimning loyihasini ishlab chiqayotganda pedagogik tizimning barcha elementlari (chorak, semestr, o‘quv yili davomida ham, shuningdek butun ta’lim davomida ham) o‘zaro ta’sirda bo‘lishiga erishish zarur.

Demak, noan’anaviy ta’lim texnologiya – muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni markazida ta’lim oluvchi shaxsi bo‘lib, o‘qitishning zamonaviy shakli, faol o‘qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta’lim - tarbiya ishidan ko‘zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltirishdir.

Bizning nazarimizda, noan’anaviy ta’lim texnologiyasi an’anaviy ta’lim texnologiyasidan farq qilib, ta’lim oluvchirning bilish imkoniyatlarini rivojlanishiga sharoit yaratadi, mustaqil ishlashlariga alohida e’tibor beriladi,

¹⁴Толипов Ў.Қ, Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбикий асослари. Т.:”Фан” 2006 йил 76 бет.

bilish faoliyatlari izlanuvchan va ijodiy harakterga ega bo‘ladi. Dars tuzilmasi o‘zgaruvchan bo‘ladi va an’anaviy pedagogikada metodik ishlanmalar o‘qituvchi dars o‘tishi uchun tuzilsa, noan’anaviy ta’lim esa -o‘quvchini o‘quv-bilish faoliyatining shakllari va mazmunini tasvirlaydigan ta’lim jarayoni loyihasini ishlab chiqishni taklif etadi.

Noan’anaviy talim texnologiyasi o‘z navbatida uchga bo‘linadi:

- Hamkorlikda o‘rganish
- Modellashtirish
- Tadqiqot (loyiha)

Hamkorlikda o‘rganish - ta’lim oluvchirning bilimlarni o‘zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo‘yicha reproduktiv faoliyatini ta’minlovchi, mahorat va malakani ketma-ketlik bo‘yicha ta’lim oluvchining bevosita boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o‘qitish va bilim olishdir. U ta’lim oluvchirning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta’lim olishini ko‘zda tutadigan metodlardan iborat. Bularga “Kitob bilan ishlash”, “O‘quv suhbatlari”, “Davra suhbatlari”, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Bahs-munozara” kabi metodlarni kiritish mumkin.

Modellashtirish - real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko‘rinishini auditoriyada yaratish va ularda ta’lim oluvchirning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta’lim olishini ko‘zda tutadi. Uning asosiy maqsadi ta’lim oluvchirning faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta’minlash orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bularga ishbop o‘yinlar va rolli o‘yinlar kabi metodlarni kiritish mumkin.

Tadqiqot - ta’lim oluvchir tomonidan muammoni tushunish va echish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar yig‘indisidan iboratdir. Tadqiqotning maqsadi dars jarayonida ta’lim oluvchirda savol qo‘yish va ularga javob izlashida qiziqishini uyg‘otishga qaratilgandir. Unda o‘qitish ta’lim oluvchirni amaliy izlanish jarayonida bevosita qatnashishini

ta'minlaydi. Bularga muammoli vaziyat, loyihalash metodi, mustaqil izlanish, yo'naltiruvchi matn kabi metodlar kiradi.

AN'ANAVIY VA NOAN'ANAVIY O'QITISHNING QIYOSIY TAHLILI

Mezonlar	An`anaviy o`qitish	Noan`anaviy texnologiko`qitish
Maqsad	Bilim berish, ko`nikma shakllantirish	Hamkorlikdagi faoliyat orqali bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish
O`rganuvchining roli	Ko`rsatmalarga bo`ysinadi; Axborotni passiv qabul qiladi; axborotni o`zlashtiradi; o`rganish jarayoni uchun qisman mas`ul	O`z g`oyalarini taklif qiladi; o`zaro bog`langan; faol ishtirok etadi; ta`lim jarayoniga to`liq mas`ul
O`qishga Qiziqtirish (motivatsiya)	Tashqi jamiyat tomonidan tazyiq ko`rsatiladi (oila, din, urf-odatlar va sh.k.); Ta`lim oluvchi o`qishning shu zahotlik foydasini ko`rmaydi	Ichki qiziqtiruvchi omillar. Ta`lim oluvchi shu zahotlik foydani anglaydi
Mazmun tanlovi	O`qituvchi nazorat qiladi. Ta`lim oluvchi qisman tanlaydi yoki umuman bunday huquqqa ega emas	Ta`lim mazmuni ta`lim oluvchir tanlagan muammolarini echishga yo`naltirilgan
Jarayon	-direktiv (ko`rsatmali) yondashuv - talqin qiladi va baholaydi -mavzu bo`yicha ko`proq va yaxshiroq biladi - mutaxassislik tilida so`zlaydi	- demokratik yondashuv -tinglaydi, qo`llab quvvatlaydi, har bir kishining fikri va g`oyalarini qabul qilishga tayyor - ta`lim oluvchir tilida so`zlaydi
Usullar (metodlar)	Ta`lim oluvchi dalillar, axborot oladi	O`qitish ta`lim oluvchirning bilim va ko`nikmasiga asoslanadi
Qaror qabul qilish	Qarorni o`qituvchi qabul qiladi	Qaror birgalikdagi faoliyat davomida qabul qilinadi hamda u guruh va o`qituvchining muvaffaqiyatli hamkorligi

“Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi “ta’lim metodikasi” tushunchasiga nisbatan kengdir. Ta’lim metodi — o’quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo’naltirilgan o’qituvchi va o’quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo’lsa, ta’lim metodikasi esa muayyan o’quv predmetni o’qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini ifodalaydi.

Ta’lim texnologiyasi — ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo’lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi.


O’qituvchining samarali faoliyat ko’rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasidan farqli o’laroq, ta’lim texnologiyasi o’quvchilar faoliyatiga nisbatan yo’naltirilgan bo’lib, u o’quvchilarning shaxsiy hamda o’qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o’quv materiallarini mustaqil o’zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi — o’quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minlashdan iborat.

“Ta’lim texnologiyasi” xususida yaratilgan adabiyotlarda ushbu tushunchaga berilgan ta’riflarga asoslangan holda biz ushbu tushunchani quyidagicha sharhlashimiz mumkin; pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo’naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

Pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik tizimni pedagogik texnologiyaning asosi ekanligini e’tirof etgan holda uni quyidagi unsurlaridan iboratdir deya ta’kidlaydi:


- 1) o'quvchi;
- 2) ta'lim -tarbiyaning maqsadi;
- 3) ta'lim - tarbiya mazmuni;
- 4) o'quv jarayoni;
- 5) o'qituvchi yoki texnik vositalar;
- 6) ta'lim -tarbiyaning tashkiliy shakllari¹⁵

Demak, pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya faoliyatining yaxlit jarayoni to'g'risidagi fan ekanligini e'tirof etish lozim. Pedagogik texnologiyaning quyidagi tarkibiy unsurlari uning asosini belgilashga xizmat qiladi



¹⁵ Bepalko V.P. Slogaemye pedagogicheskoy texnologii \M.: Pedagogika,1989. – s.6-7.

Ta'lim texnologiyasining tarkibiy tuzilmasi



Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga faol tadbiiq etish hisobiga ta'lim jarayonining rag'batl (motivatsiyasi) kuchaytirilishi mumkin. Ma'lumki, tayyor holda olingan bilimlar, odatda, ularni amaliyotda qo'llashni qiyinlashtiradi, bu ayniqsa, aniq masalalarni yechishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda o'quvchilarning bevosita faoliyat ko'rsatishlari talab etiladi. Bu muammoning yechimi boshqaruvga asoslangan pedagogik texnologiyaning qo'llanilishi bilan bog'liqdir.

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda ijtimoiy normalarga xos ongli intizomning vujudga kelishi, motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, bilim, kunikma va malakalarni ongli o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi, ko'zlagan natijaning kafolatlanganligi va samaradorlikning yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Ushbu texnologiyalar jumlasiga didaktik-o'yin, muammoli ta'lim, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, kommunikativ ta'lim, o'quv materiallarining (jadval va belgili) modellari texnologiyalari kiradi.

Demak, adabiy ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyani qo'llash ma'lum qolip asosida fikrlashni emas, balki umumiy yechimga xilma-xil ijodiy izlanishlar orqali kelishini taq'ozo etadi. Asosiy maqsadga erishish faqat tushuntirish va aniqlash jarayoni bilan chegaralanmaydi. Masalan, adabiyot darslari jarayonida o'quvchilarning ma'lum bir vaqt ichida o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni o'zlashtirishi o'sha bilimlarni takrorlay olishi va amaliyotda qo'llashi bilan belgilanadi. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonida qabul qilingan standart matnlarga ijodiy yondashishi va ta'lim mazmuni va maqsadiga mos usul hamda vositalardan unumli foydalanishi lozim bo'ladi.

II BOB. ADABIYOT DARSLARIDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

2.1. Grafik organayzerlar – ta’lim berish vositasi sifatida

Ma’lumki, adabiyot darslarida innovatsiya va ilg‘or xorijiy tajribalar muhim ahamiyat kasb etadi. Buni biz grafik tashkil etuvchilar yoki organayzerlar misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Grafik tashkil etuvchilarga “Insert” usuli, “Toifali jadval”, “konseptual jadval”, “BBB” usuli, “Klaster” sxemasi, “T-jadvali”, “Venn diagrammasi”, “SWOT-tahlil jadvali”, sxema va diagrammalar: “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Baliq skeleti”, “Muammoli vaziyat” kabilar kiradi.

Organayzer inglizcha “tashkil etuvchi, grafik tashkil etuvchi” ma’nosini bildiradi. Axborot texnologiyalari sohasi atamasi sifatida ishlatiladi. Aniqrog‘i, Power-point va shu kabi dasturlarda tayyorlanadigan vizual ko‘rgazmali namoyish usuli hisoblanadi. Tahliliy ma’lumotlarni ko‘rgazmali taqdim etish usullari va vositalari sifatida organayzerlar (grafik tashkil etuvchilar)ning vazifasi muhim hisoblanadi.

Ma’lumotlarni ko‘rgazmali taqdim etish usullari va vositalari: grafik tashkil etuvchilar. Ushbu bo‘limda ma’lumotlarni tarkiblashtirish va umumlashtirish usul va vositalari, o‘rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o‘rtasida aloqa va aloqadorlikni o‘rnatish; ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash; muammolarni hal etishni rejalashtirish kabi masalalar o‘rganiladi.

Grafik tashkil etuvchi – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi. Ular ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish usul va vositalari, o‘rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o‘rtasida aloqa va aloqadorlik o‘rnatishga o‘rgatadi.

“Ming marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan yaxshi” degan naql bor. Og‘zaki ravishda materiallarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 10 foiz bo‘lgan

sharoitda dars o'tish samarasiz bo'ladi. Mashg'ulotlarda o'quv materialni ko'rgazmali shaklda taqdim etish lozim.

TA'LIM USULLARINING MA'LUMOTLARNI ESLAB QOLISH NATIJARIGA TA'SIR ETISHI		
U S	Ma'ruza Hikoya Tushuntirish Yo'riqnoma berish	Tinglaganimizda – 5 %
U	Kitob bilan ishlash	O'qiganimizda – 10 %
L	Namoyish, Ko'rsatish, Video usul	Ko'rganimizda – 20 %
L		Ko'rib tinglaganimizda – 30 %
A	Bahs Suhbat Aqliy hujum	Birgalikda muhokama qilganimizda – 40 %
R	O'quv o'yini Muammoli topshiriq Loyihalar usuli	Mustaqil o'qiganimizda, tahlil qilganimizda, yozganimizda, muhokama qilganimizda, himoya qilganimizda, namoyish qilganimizda – 75 %
	Boshqalarni o'qitish	Boshqalarni o'qitganimizda – 90 %

Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish zarur bo'ladi. Ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilish kerak. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun *insert, toifali, konseptual, BBB, «klaster» sxemasi, t-jadvallar, venn diagrammasi, swot-tahlil jadvali, «kuchlar tahlili» grafigi, «nima uchun?», «qanday?», «baliq skeleti», «kaskad», «piramida», «nilufar guli»* kabi organayzerlardan foydalaniladi.

INSERT JADVALI. **Insert** so'zi inglizcha *joylashtirmoq, belgi qo'yimoq* ma'nosini beradi.

- mustaqil o'qish, ma'ruza tinglash jarayonida olinadigan ma'lumotlarni bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi;

- oldindan olingan ma'lumotni yangisi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

O'qish vaqtida olingan ma'lumot yakka tartibda taqsimlanadi: matnda belgi qo'yilgan mos ravishda jadval ustunlariga "joylashtiriladi":

V – "...” haqida olingan bilim (ma'lumot)ga mos keladi;

– – "...” haqidagi bilimga qarama-qarshi;

+ – yangi ma'lumot sanaladi;

? – tushunarsiz qo'shimcha ma'lumot.

INSERT JADVALI

V	+	–	?

- **Insert** – samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi.
- **Insert** – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilish muolajasi. Shundan so'ng, matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi.
- **Insert** - matn bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchiga o'zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta'minlovchi kuchli asbob.
- **Insert** - o'zlashtirishning majmuali vazifalarini yechish va o'quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o'quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o'qitish usulidir.

KLASTER USULI. Klaster inglizcha *tutam, bog'lash* ma'nosini beradi. Klaster – axborot xaritasini tuzish yo'li, barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ishga imkon beradigan grafik organayzer hisoblanadi.

Ma'lumot xaritasini tuzish vositasi – barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun qandaydir asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Bilimlar faollashishini ta'minlaydi, mavzu bo'yicha fikrlash jarayonida yangicha assotsiatsiya taqdim etishga erkin va ochiq kirib borishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidalari bilan tanishadi. Sinf doskasi yoki katta qog'oz varag'i markazida kalit so'zlar 1-2 so'zdan iborat mavzu nomlanishi yoziladi.

Kalit so'zlar bilan assotsiatsiya bo'yicha yon tomonidan kichkina hajmdagi aylanaga "yo'ldoshlar" yoziladi – ushbu mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasi. Ular chiziq bilan "bosh" so'zga bog'laniladi. Ushbu yo'ldoshlar"da "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin va boshqalar. Yozuv ajratilgan vaqt tugagunga yoki g'oya yo'qotilmaguncha davom ettiriladi. Mulohazalar uchun klasterlar almashtiriladi.

Klasterni tuzish qoidasi.

1. Aqlingizga kelgan barchani yozing. G'oya sifatini muhokama qilmang: ularni oddiy holda yozing.

2. Orfografiya va boshqa omillarga e'tibor bermang.

3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozuvni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qog'ozga rasm chizing, qachonki yangi g'oyalar paydo bo'lmaguncha.

4. Ko'proq aloqa bo'lishligiga harakat qiling. G'oyalar soni, ular oqimi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka chegaralanmang.

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganish va o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

BBB jadvali. Bu usul nomi mohiyatan uch so‘z mazmun-mohiyatining o‘zaro yaxlitligi tamoyili asosida shakllantirilgan.

<i>B</i>	<i>Bilaman</i>
<i>B</i>	<i>Bildim</i>
<i>B</i>	<i>Bilishni xohlayman</i>

Bu usul quyidagi xususiyatlarga ega:

- matn (mavzu, bo‘lim) bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;

- tizimli mulohaza qilish, tarkibga ajratish ko‘nikmalarini beradi;

- yakka tartibda (juftlikda) jadval rasmiylashtiriladi;

- quyidagi savolga javob beriladi: “Ushbu mavzu bo‘yicha siz nimani bilasiz?” va “Nimani bilishni xohlaysiz?” (Kelgusi ish uchun taxminiy asos yaratiladi);

- yakka tartibda (juftlikda) jadvalning 1-, 2- ustuni to‘ldiriladi;

- mustaqil ravishda ma’ruza matnini o‘qiydi (ma’ruzani eshitadi);

- Jadvalning 3- ustunini mustaqil (juftlikda) to‘ldiradi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari.

T – JADVALI. Bu jadval bitta konsepsiya (ma’lumot)ning jihatlarini o‘zaro solishtirish uchun qo‘llaniladi. Mazkur usul:

- tanqidiy mushohadani rivojlantiradi;

- yakka tartibda rasmiylashtiriladi;

- ajratilgan vaqt oralig‘ida muayyan tartibda (juftlikda) to‘ldiradi, uning chap tomoniga xususiyatlari yoziladi, o‘ng tomoniga esa chap tomonda ifodalangan qarama-qarshi g‘oyalar, omillar va shu kabilar;

- jadvallar juftlikda (guruhda) taqqoslanishi to‘ldirilishi lozim;

- barcha o‘quv guruhi yagona T – tuzadi.

T-JADVAL


+ (ha)	– (yo‘q)

Ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shunga muvofiq mumkin qadar ta'limning yangi usullari ustida izlanish talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

VENN DIAGRAMMASI. Ikki yoki uch narsa, belgi, harakatlarning ma'lum bir jihatlarini solishtirish, taqqoslash, qarama-qarshi qo'yish hamda ularni umumiy tarzda ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Bu usul

- yakka (juftlikda) Venn diagrammasi quriladi va kesishmaydigan aylana qismlari (X) to'ldiriladi;
- juftliklarga birlashtiriladi, o'zining diagrammasi taqqoslanadi va to'ldiriladi;
- aylanalar kesishgan joyda ular nuqtai nazaridan ikki-uch aylana (XX/XXX) uchun umumiy bo'lgan ma'lumotlar jihatlarini ro'yxati tuziladi;
- tizimli mushohada qilish, taqqoslash, solishtirish, tahlil va sintezni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

VENN DIAGRAMMASI



Bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo'lishi, ulardan o'z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo'lmoqda. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi.


“BALIQ SKELETI” SXEMASI – muammoning butun doirasi (maydoni)ni ifoda etish va uning yechimini topishga imkoniyat beradi.

Tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishadi.


”Suyak” yuqori qismiga muammo ichidagi muammo yoziladi, pastki qismiga esa ushbu muammo ichidagi muammo amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi faktlar yoziladi.

Miniguruhlarga birlashadi, o'z sxemalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi. Umumiy sxemaga jamlaydi. Natijalar taqdimoti.



“KASKAD” tarkibiy – mantiqiy sxema Iyerarxik g‘oyalar tarkibini aniqlash imkonini beradi. Tizimli, ijodiy, tashliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Sxemani tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yakka (juftlikda) sxema tuziladi. Juftlarga birlashadi, o‘z sxemalarini taqqoslaydi va qo‘shimchalar kiritadi.

“Kaskad” tarkibiy – mantiqiy sxema



“Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxemasini tuzish qoidalari

1. “Kaskad”ni tuzish jarayonida tizimli sxema tarkibiy qismi va elementlarini oldinga surish mumkin – bu u yoki bu holatni qayta mushohada qilishga imkon beradi.
2. G‘oyalarni ishlab chiqishda agarda siz tor yo‘lakka kirib qolsangiz, u holda bir-ikki daraja yuqoriga qayting va muhim narsani unutmaganingizga hamda boshqacha nimadir qilish mumkin ekanligiga amin bo‘ling.
3. Siz chapdan o‘ngga yozishga o‘rgangansiz. “Kaskad” qurishni o‘ngdan chapga bo‘lishligiga harakat qiling. Buning uchun asosiy g‘oyani varaqning

chap qirrasiga emas, balki o'ng qirrasiga joylashtiring. Sxemani tuzish qoidalari bilan tanishiladi.


Yakka (juftlikda) sxema tuziladi: asosiy muammo (g'oya, masala), kichik muammolar yoziladi, keyin muammo yoki masalaning ikkinchi darajali jihatlarini chuqurroq ko'rib chiqish uchun xizmat qiluvchi "kichik shoxlar" davom ettiriladi. Buning natijasida bitta g'oya rivojlanishining barcha tomonlari yetarlicha chuqur o'rganib chiqilishi mumkin.

Juftlarga birlashadi, o'z sxemalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi. Umumiy sxemaga jamlaydi. Natijalar taqdimoti.

"PIRAMIDA" SXEMASI. Bu sxema darajalanish xususiyatini o'zida aks ettiradi. Yakka (juftlikda) sxema tuziladi: asosiy muammo (g'oya, masala), kichik muammolar yoziladi, keyin muammo yoki masalaning ikkinchi darajali jihatlarini chuqurroq ko'rib chiqish uchun xizmat qiluvchi "kichik shoxlar" davom ettiriladi. Buning natijasida bitta g'oya rivojlanishining barcha tomonlari yetarlicha chuqur o'rganib chiqilishi mumkin.

Juftlarga birlashadi, o'z sxemalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi. Umumiy sxemaga jamlaydi.

"Piramida" sxemasi ko'rinishi



“QANDAY?” METODI ta’lim oluvchirda o’rganilayotgan mavzu, muammo yuzasidan umumiy tasavvurlarni hosil qilishga imkon beradi. Metodni qo’llashda o’quvchi (ta’lim oluvchi)larda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga solish, ularni tahlil qilish ko’nikmalari shakllanadi. Metodni qo’llash:

- 1) o’qituvchi tanlangan mavzu, masalani e’lon qiladi;
- 2) o’quvchi (ta’lim oluvchi)larni mavzu va metod bilan ishlash qoidalari bilan tanishtiradi;
- 3) ular guruhlariga biriktiriladilar;
- 4) guruhlariga topshiriq beriladi;
- 5) guruhlar topshiriqni bajaradilar;
- 6) guruhlar tomonidan taqdim etilgan echimlar bilan jamoa tanishtiriladi;
- 7) jamoa tomonidan guruhlarning ishlari muhokama qilinadi.

Muammoning yechimi “Buni qanday qilish kerak?”, “Qanday?” savollariga javob topish asosida hal qilinadi. Muammoni yechishda “nima qilish kerak”ligi to’g’risida o’ylanib qolmaslik lozim. Savollarning izchil berilishi muhim ahamiyatga ega. Metodni qo’llashda muammoni yechish imkoniyatlarigina izlanmay, ularni qo’llash yo’llari ham tadqiq qilinadi.

Metodni qo’llashda quyidagi shartlarga amal qilinadi:

- 1) o’ylangan barcha g’oyalarni tahlil qilinmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezda qayd etilishi kerak;
- 2) shakllanayotgan diagramma tugallangan bo’lmay, unga yangi g’oyalarni kiritish mumkin bo’lsin;
- 3) agarda chizmada savol uning “shoxlarida” bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatib, u muammoning asosiy echimi bo’lishi mumkin;
- 4) yangi g’oyalarni grafik, klaster yoki tasvir ko’rinishida bo’lishidan qat’iy nazar yuqoridan pastga yoki chapdan o’ngda qayd qilib boriladi va buni ta’lim oluvchirning o’zlari hal etadilar;
- 5) agar ta’lim oluvchir savollarni to’g’ri qo’ysalar va masalaning rivojlanish yo’nalishini ob’ektiv belgilay olsalar, u holda yechim to’g’ri topiladi.

Grafik organayzerlar mavzusi yuzasidan nostandart

TESTLAR

Standart shakldagi reproduktiv test namunalari. Yopiq testlar

1. Tahliliy ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalari deganda nimani tushunasiz?

- A) hamkorlik ta'lim texnologiyalari B) innovatsion texnologiyalar
- C) muammoli ta'lim metodi *D) grafik tashkil etuvchilar (grafik organayzerlar)

Standart shakldagi reproduktiv test namunalari. Ochiq testlar

1. Organayzer inglizcha so'z bo'lib, ... ma'nosini bildiradi.

- A) metod B) usul C) o'zaro hamkorlik *D) tashkil etuvchi

2. Grafik organayzerlar – ...

*A) o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui.

B) o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi ma'ruzalar matni.

C) o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi elektron darslik.

D) o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi elektron lug'at.

Qisman-izlanishli daraja darajadagi test topshiriqlari

1. Tahliliy ma'lumotlarni ko'rgazmali taqdim etish usullari va vositalariga nimalar kiradi?

- 1) жадвал 2) маъруза матни 3) схема 4) электрон дарслик 5) диаграмма
- 6) график

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 *B) 1, 3, 5, 6 C) 1, 2, 5, 6 D) 1, 3, 5

2. Grafik organayzerlarning ta'rifiga mos keladigan to'g'ri javobni aniqlang.

1) axborot xaritasini tuzish yo‘li, barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ishga imkon beradigan grafik organayzer turi

2) bir-birini kesadigan ikki yoki undan ortiq doiralarda qo‘llaniladigan, tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradigan grafik organayzer

3) mavzuga oid savollar ketma-ketligi asosida oddiylikdan murakkablikka qarab tuziladigan grafik organayzer

4) mustaqil o‘qish vaqtida olgan ma‘lumotlarni, eshitgan ma‘ruzalarni tizimlashtirishni ta‘minlaydigan olingan ma‘lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish imkonini beruvchi grafik organayzeri

a) klaster b) zinama-zina c) venn diagrammasi d) insert

*A) 1 – A, 2 – C, 3 – B, 4 – D B) 1 – A, 2 – B, 3 – C, 4 – D

C) 1 – D, 2 – B, 3 – C, 4 – A D) 1 – B, 2 – D, 3 – C, 4 – A

Ijodiy (kreativ) daraja testi

8-topshiriq

Quyidagi jumalardagi xatolikni toping.

1) Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo‘ysunadigan g‘oyalar tuzilmasini aniqlashga va takomillashtirishga imkoniyat yaratadi, muammoni yechish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo‘llarini ham tadqiq qilishga undaydigan metod nomi “Venn” grafik organayzeridir.

2) Agar grafik organayzerlarni o‘qituvchi tayyor (to‘ldirilgan) holda qo‘llasa, metod vazifasi bajaradi.

3) Agar grafik organayzerlarni o‘qituvchi ta‘lim oluvchirning mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatsa, vosita vazifasini bajaradi.

8-topshiriqning javobi

Quyidagi jumalarda xatoliklar topildi.

1) Quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo'ysunadigan g'oyalar tuzilmasini aniqlashga va takomillashtirishga imkoniyat yaratadi, muammoni yechish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo'llarini ham tadqiq qilishga undaydigan metod nomi **“Qanday” grafik organayzeridir.**

2) Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor (to'ldirilgan) holda qo'llasa, **vosita vazifasi bajaradi.**

3) Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi ta'lim oluvchirning mashg'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatsa, **metod vazifasini bajaradi.**

1	2	3	4	5	6	7	8
D	D	B	D	A	B	A	***

2.2. Adabiyot darslarida grafik organayzerlardan foydalanish

Grafik organayzerlar – o‘quv jarayonida qo‘yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklardan foydalanish ham yuqori natijalarni kafolatlaydi. Agar grafik organayzerlarni o‘qituvchi tayyor (to‘ldirilgan) holda qo‘llasa, vosita vazifasini, o‘quvchilarning mashg‘ulot mavzusiga doir bilimlarni mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi. Masalan, shunday grafik organayzerlardan “Qanday”, “Nima uchun”, “BBB” kabi organayzerlarini misol keltirish mumkin.

Pedagogik texnologiyalar sohasidagi yangi izlanishlar bilan tanishish, o‘qitishning faol usullarini bilish va qo‘llay olish har bir pedagog oldiga qo‘yayotgan zamon talablarining asosiylaridandir. Keyingi manbalarda e‘lon qilingan axborotlarni tahlil etgan holda quyida adabiy ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan grafik organayzerlardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

T – chizma. T - chizma munozara vaqtida qo‘shaloq javoblar (ha/yo‘q, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash - zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Sharq she‘riyatining, ayniqsa g‘azal janrining bosh mavzusi ishq-muhabbatdir. Ishqiy g‘azallarda asosan uchta: ma‘shuqa (yor), oshiq hamda raqib ishtirok etishini aytib, bu yerda obrazlar ishtiroki bilan bog‘liq andazalar borligiga o‘quvchilar diqqati tortiladi. Mana shu uch asosiy obrazlarga xos bo‘lgan doimiy xarakter belgilari, ta‘rif-tavsiflarni bilish va anglash mumtoz she‘riyatni to‘g‘ri o‘qish, tushunish va tahlil qilish garovidir. Buning uchun “T-chizmasi” strategiyasi eng ma‘qul texnologiya sanaladi. G‘azal janridagi an‘anaviy oshiq va ma‘shuqa obrazlarini “T-chizmasi” metodi bo‘yicha tushuntirish qulay. Avval bu ikki obrazning uzviy bog‘liq ikki jihati – portreti va xarakter xususiyati qiyoslanadi. Texnologiya asosida qiyoslagandan so‘ng oshiq va ma‘shuqlarning portreti, xarakter-xususiyati, ichki va tashqi ko‘rinishi ifodalari yaqqol namoyon bo‘ladi.


“T-chizmasi metodi

Ma'shuqa		Oshiq			
Portret: Go'zal Labi g'uncha Sochi sunbul Beli xipcha Nigohi o't Sarv qomat		Xarakter xususiyati: Sho'x Iltifotsiz Zulmkor Sitamgar Bevafo Mag'rur v.b.	Portreti: Holi zabun Zorlanuvchi Qaddi dol Ko'z yoshi qon Rangi sariq Jismi zaif v.b.		Xarakter xususiyat: Sabrli Yozg'iamaydi Xokisor Vafodor Ishqa barqaror Vaslga umidvor v.b.

Har bir ta'rif yoki tavsifga g'azallardagi baytlardan misol keltirilishi hamda fikrni mantiqli dalillar bilan isbotlash yuqori baho (ball) uchun asos bo'lishi kerak.

Venn diagrammasi. Ushbu grafik organayzer ta'lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi. “Venn diagrammasi” grafik organayzeri adabiy ta'limda adabiy asarlar, adabiy turlar va janrlarni tahlil qilish mumkin. Masalan; uchta doira chizib, lirik, epik, dramatik turning o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qilish mumkin

Venn diagrammasini tuzish uchun maxsus vaziyat kerak. Masalan, Mirmuhsinning ”Me'mor” romanini oqitish uchun tuzilgan organayzer ya'ni “VENN” diagrammasiga tuzilgan variant



- **tayfun** [ingl. typhoon < xit. taifung (tay fin) – kuchli shamol
- **to‘fon** [arabcha – toshqin; suvning ko‘tarilishi] Shiddatli bo‘ron, dovul.
- **Gird(i)bod** [forscha – uyurma; bo‘ron, dovul] To‘zon, chang, qum aralash buralib ko‘tariluvchi qattiq shamol; quyun, uyurma, dovul.

Insert metodi. Zamonaviy metodlardan “Insert” metodi (belgi qo‘yib o‘qish)ning afzalligi o‘qish va yozishni samarali amalga oshirish, ta’lim oluvchidarda matn bilan ishlash ko‘nikmalarini imkonini beradi. Mazkur usulda o‘quvchiga notanish matn, yoki matndan parcha beriladi. Masalan; Cho‘lponning “Yorug‘ yulduzga” she‘ridan bir parcha beramiz:

Go‘zal yulduz, nurli yulduz tez so‘zla,
 Otalarning tarixdagi xatosin;
 Shul xatodan osug‘lanib yovlarning
 El ko‘ksida surgan ishrat, safosin.

Ta’lim oluvchi matnni yoki matn qismini o‘qish jarayonida asarning qaysi janrga mansubligini aniqlaydi. Shu tariqa keyingi matnlar ham beriladi. Ta’lim oluvchi topshiriqni bajarish jarayonida daftariga quyidagi belgilarni qo‘yadilar. “V” - bilaman, “-” - notanish, “+”- yangilik, “?” -tushunmadim, ya’ni qo‘shimcha ma’lumot kerak. Insert jadvali quyidagicha tuziladi.

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V”–tanish ma’lumot			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“- ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Kontseptual va toifalash jadvali. Konsepsiya-qarashlar sistemasi, tushunish degani bo'lib, bunday jadvallar orqali epik va lirik turdagi matnlar ustida turli topshiriqlarni bajarish taqqoslab ko'rsatish mumkin.

- o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi.

Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Yakka tartibda yoki miniguruhlarda kontseptual jadval quriladi va u to'ldiriladi;

- vertikal bo'yicha - taqqoslash talab etiladigan narsalar (qarashlar, nazariyalar) joylashtiriladi;

- gorizontal bo'yicha – taqqoslashni amalga oshirishdagi har xil tavsiflar joylashtiriladi.

-ish natijasi taqdimoti

“Badiiy asar qahramonlari” kontseptual jadvali

Badiiy asar qahramonlari	Tavsiflar, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilar		
	Asarda tutgan o'rni	porterti	Xarakter xususiyati
Otabek			
Anvar			

“Kecha va kunduz” romani qahramonlarining toifalash jadvalida aks etishi

Ijobiy obrazlar	Salbiy obraz	O'zgaruvchan obraz
<i>Zebi</i>	<i>Akbarali</i>	<i>Miryoqub</i>

BBB jadvali

<i>Bilaman</i>	<i>O ‘qib tanishish jarayonida duch keldim, bu hodisani avvaldan bilaman</i>
<i>Bildim</i>	<i>O‘qib tanishish jarayonida bildim</i>
<i>Bilishni xohlayman</i>	<i>O‘qib tanishish jarayonida duch keldim, bilishni xohlayman</i>

“Toifalash jadvali” asosida mumtoz lirik asarlarni o‘rganish

	Hijolar														
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
Dastlab odatdagi tamoyillar asosida cho‘ziq va qisqa hijolarni belgilaymiz. So‘ngra ikkala misradagi mos hijolarni solishtirib, ularni uyg‘unlashtirishga harakat qilamiz.															
Misra															
Parad															
Misra															
Parad															
1. Cho‘ziq hijo ostidagi hijo ham cho‘ziq bo‘lishi lozim. 2. Oxirgi bo‘g‘in doim cho‘ziq bo‘ladi.															
Misra															
Parad															
Misra															
Parad															
1. Yana bir baytni ko‘rib o‘tamiz.															
Misra															
Parad															
Misra															
Parad															
Xulosa chiqaramiz															
Afoil															
Vazn Nomi															

“Toifalash jadvali” asosida “Dahshat” o‘rganish

Obrazlar	Ijobiy obrazlar	Salbiy obrazlar	Turmush tarzi darajasi
Dodxoh		Ko‘p xotini bor boy odam	O‘zi uchun yuqori, lekin mahnaviy qashshoq
Nodirmohbegim	Dodxohning eng katta xotini	Erini yana boshqa xotininga uylanishiga qarshilik bildirmaydi	Boy xonadonda kundoshlariga chidab yashaydi. Unsinni o‘z qiziday ko‘radi.
Boshqa xotinlari	Ularni ijobiy ham salbiy ham deb bo‘lmaydi	Yozuvchi Dodxohning xotinlari haqida alohida fikr bildirmaydi	Dodxoh xonadonda qashshoqlik ko‘rmay, erklaridan mosuvo bo‘lgan ayollar
Unsin	Judayam yosh, yosh bo‘lishiga qaramay Dodxohning sakkizinchi xotini, u o‘z erki uchun hech narsadan qaytmaydi.	Yosh bo‘la turib Dodxohga xotin bo‘lishiga jim turgan	Qashshoqlikdan mahrum bo‘lib, boy xonadonda erksiz yashayotgan, yoshligini cholga qurbon qilgan.

SWOT tahlildan foydalangan holda Farhod va Xusrav obrazlariga tavsif bering.

	Farhod obraziga tavsif
S (Kuchli tomoni)	
W(Zaif tomoni)	
O (Imkoniyat)	
T (Xavf-xatar)	

	Xusrav obraziga tavsif
S (Kuchli tomoni)	
W(Zaif tomoni)	
O (Imkoniyat)	
T (Xavf-xatar)	

Rezyume texnologiyasi. Texnologiya ta'lim oluvchilar tomonidan murakkab, ko'p tarmoqli va muammoli mavzularning samarali o'zlashtirilishi uchun xizmat qiladi. Unga ko'ra o'rganilayotgan mavzuning band yoki bo'limlari bo'yicha axborot berilib, har biri alohida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida o'quv materialining mohiyatini yorituvchi asosiy tushuncha, muhim qoidalarning mazmuni, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishdagi ahamiyati, murakkablik darajasi va amaliy qiymati kabi holatlarga e'tibor qaratiladi. Bu texnologiya o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, izlanish, mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining yechimini topish, zarur xulosalar chiqarish, oqilona qarorlar qabul qilish, jamoaga samarali ta'sir etish, mavzu bo'yicha egallangan bilimlarni bevosita amalda qo'llay olishga o'rgatadi. Rezyume texnologiyasi murakkab va ko'p tarmoqli, imkon qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Bunda bir yo'la mavzularning turli jihatlari bo'yicha axborot beriladi va har biri alohida nuqtalarda muhokama etiladi. Masalan, asarning janri, asar qahramonlarining ijobiy va salbiy tomonlari, fazilat va kamchiliklari belgilanadi: Masalan; Cho'ponning "Kecha" romani qahramonlari Zebi, Miyoqub, Razzoq so'fi obrazlarining fazilati va kamchiliklarini quyidagi jadval asosida o'rganish obrazlar tabiatini o'rganishda ijobiy samara beradi.

"Kecha va kunduz" romanining qahramonlari					
Zebi		Razzoq so'fi		Miryoqub	
fazilati	kamchiligi	fazilati	Kamchiligi	fazilati	kamchiligi

KLASTER GRAFIK ORGANAYZERI. Klaster (Klaster-tutam, bog'lam) – axborot xaritasini tuzish yo'li; barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

Grafik organayzerning turi, ahamiyati va xususiyatlari: bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klaster texnologiyasiga tuzilgan taxminiy variant




Mirmuhsinning "Me'mor" romanini oqitish uchun tuzilgan

«Piramida» sxemasi

Bu sxema darajalanish xususiyatini o'zida aks ettiradi. Yakka (juftlikda) sxema tuziladi: asosiy muammo (g'oya, masala), kichik muammolar yoziladi, keyin muammo yoki masalaning ikkinchi darajali jihatlarini chuqurroq ko'rib chiqish uchun xizmat qiluvchi «kichik shoxlar» davom ettiriladi. Buning natijasida bitta g'oya rivojlanishining barcha tomonlari yetarlicha chuqur o'rganib chiqilishi mumkin.

Juftlarga birlashadi, o'z sxemalarini taqqoslaydi va qo'shimchalar kiritadi.
Umumiy sxemaga jamlaydi.



II BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuni ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar

Hozirgi kunda keng ko'lamda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ta'limning ilg'or texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etishni zamon talabi darajasiga ko'tardi. Bu o'z navbatida ta'lim sohasiga texnologik yondashuvni tatbiq etish va pedagogik usulni qo'llash O'zbekistonning milliy ma'naviy-madaniy xususiyatlarini, tarixiy an'analarni hisobga olgan holda amalga oshirishni talab qiladi.

Inson mukammallikka intilib yashaydi. Qanday yashash lozimligini ko'rsatib turadigan andoza yaratish hamma zamonlarda ham ta'lim-tarbiyaning asosiy masalaridan biri bo'lgan. Keyingi davrda ta'lim va tarbiya masalalari bilan mashg'ul kishilarga shu narsa ma'lum bo'lib qoldiki, andoza va namuna bo'ladigan timsol va odob doirasini targ'ib qilish bilan shaxs takomiliga erishish dushvor bir masala ekan. *Bolani o'z erkiga qo'yib berish, uning atrofida voyaga etgach duch kelinadigan ijtimoiy hayot modeliga yaqin sharoit yaratib, uning yoshi, bilim darajasiga mos axborot va bilimlar tizimi bilan ta'minlash, ushbu ta'minotning eng samaralilarini ishlab chiqib, amaliyotga tabiq etish zamonaviy adabiy ta'lim metodikasining asosiy vazifalaridan biriga aylanib qoldi.*

E'tirof qilish kerakki, yuqorida qayd qilinganidek, bu borada anchagina yutuqlarga ham erishildi. Adabiyot o'qitishning zamonaviy texnologiyasi nazariy masalalari ishlab chiqildi. Maqola va risolalar tarzida talaba va o'qituvchilar hukmiga havola qilinmoqda. Ushbu nazariy qarashlarni amaliyotga tatbiq qilish har bir o'qituvchi, murabbiyning o'ziga havola.

Maktab darsliklariga hajman katta janrlardan parchalar olinadi. Chunki bunda o'quvchilar dunyoqarashi, ta'lim bosqichi va turi eng asosiysi, vaqt

hisobga olinadi. Lekin maqsad: shu parchalar orqali asarning mazmun-mohiyati, asosiy g'oyasini, uning go'zal badiiy obida ekanligiga putur etkazmagan holda o'quvchilar ongiga etkazib berishdir. Buning esa aniq bir yo'li yo'q. Bu yo'l har bir adabiyot o'qituvchisining ilmiga, dunyoqarashining kengligiga va eng asosiysi uning ijodkorligiga bog'liq. Yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim bosqichlariga jadallik bilan kirib boayotgan ***bugungi kunda o'qituvchining, ayniqsa, adabiyot o'qituvchisining ijodkorligiga ko'p narsa bog'liq.***

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilingan darsning nafaqat shakli, balki uning mazmun - mohiyati ham an'naviy darslardan tubdan farq qilishi kerakligi o'qituvchining diqqat markazida turmog'i, tashkil qilgan har bir darsi o'qilmagan, o'qilgandan keyin esa unitilmaydigan ertak bo'lmog'i lozim.

O'qituvchining yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars tashkil etishda xushmuomala madaniyatga ega bo'lishi va notiqligi, o'z fanini chuqur egallagan bo'lishi, jamiyatda yuz berayotgan kundalik axborotlardan xabardor bo'lib turishi, ingliz tilida (dunyo tillaridan birida) erkin muloqot qila olishi, dars jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalaridan mustaqil foydalana olishini, internet tizimining kerakli saytlaridagi fanga doir ma'lumotlardan o'zi va o'z o'quvchilari bilan birgalikda erkin foydalana olishi malakasi to'la shakllangan bo'lishi zarur deb topildi.

3.2. Dars ishlanmasi

A.Qodiriy va Cho'lpon hayoti va ijodi bo'yicha takrorlash darslarida grafik organayzerlardan foydalanish asosida tuzilgan dars ishlanmasi

Mavzu	A.Qodiriy va Cho'lpon hayoti va ijodi bo'yicha takrorlash
Darsning maqsad va vazifalari	-ilmiy: o'quvchilarning A.Qodiriy va Cho'lpon hayoti va ijodi bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash, takrorlash; -tarbiyaviy: ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish; -rivojlantiruvchi: mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, og'zaki nutqni rivojlantirish. Vazifalar: o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu asosida berilgan savol va topshiriqlarni qay darajada bajarganligini kuzatish va ularning bilimni baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	Ijodkorning hayoti va ijodiga tegishli ma'lumotlarni mustahkamlash, asarlarining mazmun-mohiyatini anglatish, asarlar tili va shakli ustida ishlash.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Usul: evristik ta'lim texnologiyalari, "T-chizma", "Tushunchalar tahlili", muammoli ta'lim texnologiyasi. Shakl: yakka va guruhlarda ishlash. Vosita: kompyuter, kodoskop, tarqatmalar, darslik, portret, video rolik. Nazorat: savol, topshiriqlar. Baholash: "5" balli tizim asosida
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Mavzuning qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan egallanishiga erishish. O'quvchilar faolligini oshiradi. Mavzuni mustaqil o'rganish, tahlil qilishiga erishishadi, mustaqil fikrlash qobiliyati va og'zaki nutqi shakllantiradi. O'quvchi: A.Qodiriy va Cho'lpon hayoti va ijodi bo'yicha takrorlash asosida fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Izlanish, o'quv tadqiqoti qila olish ko'nikmalari kamol topadi.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda qo'llash, takomillashtirish, o'z ustida ishlash, pedagogic mahoratini oshirish. O'quvchi: Mustaqil ishlashni, fikrlashni o'rganadi, ravon bayon qila oladi. O'rganilgan mavzu yuzasidan

	qo‘shimcha ma‘lumotlar izlanadi. Do‘stona muhitda hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.
Uyga vazifa	Darslikda berilgan savol va topshiriqlarni bajarish va prezidentimiz I.Karimovning “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” asariga bog‘lash

Darsning blok- chizmasi:

- 1.Tashkiliy qism.5 daqiqa
- 2.O‘tilgan mavzuni so‘rash: 10 daqiqa
- 3.Yangi mavzu bayoni: 15 daqiqa
4. Mustahkamlash: 10 daqiqa
5. Baholash va uyga vazifa: 5 daqiqa

Darsning borishi


1.Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash, jurnalda belgilash.

Sinf jamoasi guruhlariga bo‘linadilar. Guruh a‘zolari bilan birgalikda oltin qoidalar ishlab chiqiladi va vazifalar taqsimlanadi.

2.O‘tilgan mavzuni so‘rash.


“Topqirlar” guruhiga savollar:

- 1.Ijod mahsuli
- 2.Nodira chistoni
- 3.G‘azal mulkining sultoni
- 4.Cho‘lpon she’ri
- 5.Ozodlik.



“Bilimdonlar “guruhiga savollar:

1. Epik asar
2. “Mehrobdan chayon” romani timsoli
3. 1897-1938 yillarda yashab ijod etgan shoir
4. Anvarning akasi



Butun jamoa uchun krossvord

“Mehrobdan chayon “ romani bosh timsoli.

- Qodiriy farzandi
- Qodiriy hikoyasi
- Qodiriy rafiqasi
- Qodiriy ishlagan gazeta
- Qodiriy hikoyasi
- Qodiriy romani bobi
- Gazeta nomi

- ▣ Cho‘lpon tarjima qilgan asar
- ▣ Cho‘lpon asarlari bosilib turadigan jurnal
- ▣ Cho‘lpon she‘riy to‘plami
- ▣ Og‘ir emas
- ▣ Cho‘lpon she‘ri
- ▣ “O‘tkan kunlar” romani bosh timsoli
- ▣ Qodiriy she‘ri
- ▣ Qodiriy hikoyasi
- ▣ Qodiriy yozmoqchi bo‘lgan roman


Berilgan boshqotirmalar o‘quvchilar bilimini faollashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

So‘ng “Blis-so‘rov” metodiga asosan savollar bilan mustahkamlanadi.

(Slaydlardagi tasvir savol va topshiriqlar asosida izohlanib boriladi.)

1. Ra‘noning boshqa qizlarga o‘xshamaydigan jihatlarini ayting?
2. Anvar bilan Xudoyorxon orasidagi munozarada kim g‘olib chiqadi?
3. Anvarning xaloskori kimlar?
4. Cho‘lponning “Go‘zal” she‘rida nimalar tasvirlangan?
5. She‘rda nima sababdan yulduz bilan oy haqida fikr yuritigan?
6. Cho‘lponning qanday dramatic asarlari bor?
7. Cho‘lponning “Xalq” she‘rida yaratuvchilik qudrati qanday tasvirlangan?
8. Cho‘lponning “Binafsha” she‘ridagi asosiy g‘oya nimaga qaratilgan?
9. Cho‘lpon qanday yurtni buzilgan o‘lka deb ataydi?
10. “Go‘zal” she‘rida lirik qahramon nima uchun o‘zini yo‘qsil deb ataydi?

- ▣ Yulduz bilan oyning go‘zalni o‘nglarida emas, tushlarida ko‘rishiga sabab nimada deb o‘ylaysiz?
- ▣ Shamol go‘zalni qay holatda uchratganini matndan qayta o‘qing.U go‘zalni qayerda , qanday holatda ko‘rishi mumkin deb o‘ylaysiz?
- ▣ Sizningcha, nega yulduz bilan oy go‘zalni yushida ko‘rishgan-u, shamol o‘ngida ko‘rgan? Bunga asos bormi?
- ▣ Go‘zal kim? Odam timsolimi, ozodlikmi, baxtmi, vatanmi?



	She'r	Roman	drama
“Yorqinoy”			+
“Xalq’	+		
“Ko‘ngil”	+		
“Ozod turk bayrami”			+
“Binafsha”	+		
“Kecha va kunduz”		+	

Izoh sifatida

Cho‘lponning she‘riy asarlariga nazar tashlasak, uning nihoyatda nozikta‘b, kamtar, xokisor, oliyjanob , tabiat va kishilardagi go‘zallikning kamalak ranglarini ko‘ra biladigan xalq va uning zarralari bo‘lgan kishilarga ezgulik istagi bilan yashagan insonni ko‘ramiz. Ana shu inson uning lirik qahramonidir. Odatda har bir shoir lirik qahramon obrazida o‘zining hayotdan olgan taassurotlari, his-tuyg‘u va kechinmalarini ifodalaydi. Cho;lpondek mustabid tuzum sharoitida yashagan shoirning faqat bir xilkechinmalarini ifoda etish also mimkin emas. Negaki, uning hayotida baxt va saodat daqiqalaridan ko‘ra , istirob, g‘am va alam og‘ushida kechgan kunkar oz bo‘lmagan. Shunday ekan, Cho‘lponning lirik she‘rlarida ana shu murakkab davrda yashagan kishining ruhiy olamidagi po‘rtanalar o‘z in‘ikosini yopmasligi mumkin emas edi.

Cho‘lpon ilohiy bir iste‘dod egasi.ediki, uning hatto yuqoridagi jajji bir she‘rining ham tagida katta ma‘no va mazmun qatlami yotadi. (slyd)

Shoirning “Go‘zal” she‘ri misolida go‘zallik qoshida hayratda qolgan oshiq ruhiyati tahlili misolida insonni anglash hissini tarbiyalash , adibning go‘zalni ta‘riflashdagi mahoratini namoyish etadi. Inson ruhiy kechunmalari

oshiq iztiroblari bilan tabiat hodisalari mutanosibligini tahlil qilishga o'rgatish, o'zbek she'riyatining o'ziga xos jihatlarini anglatish tarzida belgilash mumkin. She'rdagi notanish so'zlarga izoh berish mavzuning mazmun-mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Shoir inson ruhiyatidagi o'zgacha holatlarni tabiat bilan mutanosiblikda tasvirlashga harakat qilgan. Asar qahramoni oshiqning hissiyotlari tabiatga ham jon bag'ishlaydi. Oshiq tabiatni dard bilan , insoniy ishq bilan munavvar qiladi. Oshiq o'zi islayotgan go'zalni dastlab qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib eng yorug' yulduzdan so'raydi. Shu bois go'zalning qahramoni oshiq-bedor. Bedor odam qalbida ishq oshyon qurgan dardman oshiq o'ziga dardkash izlashi tabiiy. Lekin bu xildagi o'ta intim tuyg'ularni boshqa birov bilan o'rtoqlashib bo'lmaydi. Shu sababli lirik qahramonning uyqusiz tunda osmon jismlariga-eng yorug' yulduzga murojaat etishi , undan yorini so'rashi ishonarli. Ma'lumki, iboli, hayoli qizlar bemahal ko'cha kezmaydi. Yulduz va oy ma'shuqaning ta'rifini eshitishlari , eshit ganlari asosida tushlarida ko'rishlarigina mumkin.Go'zalni ko'rmoa uchun oyning o'zi ham ham bo'y ko'rsatadi. Shunda undan mayin oq rangli nus, suy. day nimtatir yoriglik taraladi. Oydan taralgan nur malakka t ushib, uni bag'riga oladi. Go'zal garchim oy uni o'ngida ko'rmagan bo'lsa-da, nazarida albatta , oq kiyingan bo'lishi kerak. Yerdagi malakning oppoq kiyimi ko'kdagi oyning nuri bilan qo'shilib, go'zalni oqqa ko'madi va bu juda tabiiy.

Cho'lpon hayoti va ijodi bo'yicha xronologik xarita

<i>1</i>	<i>9</i>	<i>2</i>	<i>1</i>
<i>1</i>	<i>9</i>	<i>3</i>	<i>8</i>
<i>1</i>	<i>9</i>	<i>9</i>	<i>9</i>
<i>1</i>	<i>9</i>	<i>3</i>	<i>8</i>

- ▣ *“Xalq” she’rining yaratilgan yili.*
- ▣ *Cho‘lpon o‘limga hukm qilingan yil.*
- ▣ *Cho‘lponga nechanchi yilda qanday orden berilgan.?*
- ▣ *Cho‘lpon nechanchi yilda qayerda , kimning kotibi bo‘ladi?*

TOPSHIRIQ

“SWOT-tahlil” metodi asosida ikkala guruhga vazifa beriladi; “Anvar obrazini tasniflang.”

<p>S-Kuchli tomonlar</p> <p><i>Ma’naviy yetuk inson</i></p> <p><i>Bilimli</i></p>	<p>W-Zaif tomonlar</p> <p><i>Shijoatsiz</i></p>
<p>O-Imkoniyat</p> <p><i>Sodiq do‘stlari</i></p> <p><i>Sadoqatli, qat’iyatli, aqlli yori Ra’no</i></p>	<p>T-xavf-xatar</p> <p><i>Mavjud tuzum</i></p> <p><i>Johil, xudbin kishilar</i></p>

“Qodiriy bog‘i” nomli videorolik namoyish etiladi.

Tiriksan, o‘lmagansan,

Sen-da odam, sen-da insonsan.

Kishan kiyma, bo‘yin egma,

Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsan!”

Refleksiya.

1. Bugungi darsdan olingan taassurotlaringiz haqida stikerlarga yozing.

2.Darsning qaysi qismi sizga yoqdi (yoqmadi)?

3.Darsdagi o‘z faoliyatingizni qanday baholaysiz?

Baholash. O‘qituvchi darsni xulosalab, guruhlarni baholaydi.

XULOSA

Ma'naviyati barkamol, tashabbuskor, mustaqil fikrlay oladigan, har qanday hayotiy vaziyatga o'z nuqtai nazari bilan yondasha oladigan fuqarolarni shakllantirish zaruriyati mamlakatda "Kadrlar tayorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishini taqozo etdi. Bu dastur va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun respublikadagi mavjud ta'lim tizimida keskin o'zgarishlarni keltirib chiqarishi tabiiy edi. Natijada umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan barcha fanlar bo'yicha yangilangan pedagogik tafakkur asosida konsepsiyalar yaratildi. Konsepsiya belgilab bergan yo'nalish asosida o'quvchilar bilimi darajasiga davlat tomonidan standart talablar qo'yildi. Shu asnoda o'z-o'zidan barcha o'quv fanlari bo'yicha dasturlar va darsliklarni yangidan yaratishga ehtiyoj sezildi. Shuning uchun ham Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'lim-tarbiya sohasiga milliy dialektik nuqtai nazardan yondashib, uni quyidagicha: "Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi", - deb ta'riflaydi.¹

Maktabda adabiyot o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda yuksak ma'naviy sifatlarni shakllantirish, ularni nozik qalb, nozik tuyg'ular egasi qilib tarbiyalashdan iboratdir. Shunday ekan adabiyot o'qituvchisi adabiyot fanidan tashkil qilinadigan har mashg'ulotda ushbu maqsad sari intilishi zarur.

Adabiyot va ijtimoiy hayot, adabiyot va axloq masalalarini to'la tushunib, faol kitobxon bo'lish uchun, asarlardan estetik zavq va intellektual bahra olish uchun o'quvchilar, avvalambor, adabiy-nazariy tushunchalarni puxta o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Shuni nazarda tutgan holda Davlat talim standartlari va adabiyot fani o'quv dasturlarida turli adabiy janrlar, badiiy asar tuzilishi, badiiy ifoda va tasvir vositalari, sheriylar va san'atlar haqida nazariy

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992, 78-bet

malumotlarni o'rganishga alohida e'tibor berilgan. Ayni mana shu jarayonda turli grafikli chizmalardan, jadvallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday grafikli tashkil etuvchilar o'quvchilarga berilayotgan ma'lumotlarni faqat axborot shaklida eslab qolishni emas, balki bu ma'lumotlarning tez va oson bilim, ko'nikma hamda malakaga aylanishiga yordam beradi. Shuningdek, organayzerlarning muayyan bir turi boriki, ular o'quvchiga taqqoslash, solishtirish imkonini yaratadi.

Umumta'lim maktablarida o'zbek adabiyoti o'qitish metodikasining dolzarb masalalaridan biri mashg'ulotlar jarayonida zamonaviy texnologiyalardan biri sanalmish grafik organayzerlardan foydalanish uslubiyati haqida imkoniyatimiz qadar, o'z fikr-mulohazalarimizni bildirdik. Albatta, o'rganilayotgan masala juda murakkab va munozaratalab muammolardan biridir. Negaki, zamonaviy o'rgatish texnologiyalarning hajmi va turlari haqida manbalarda xilma-xil fikrlar uchraydi. Biz ularni o'rganib o'zimizga maqul deb topilganidan foydalandik.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiyoti fanini zamonaviy texnologiyalar, xususan, grafik organayzerlar asosida o'rgatish davr talabi. Yosh avlod turli ma'naviy-texnikaviy omillar ta'sirida aqliy-shuuriy jihatdan faollashib borayotganligini e'tirof qilishimiz lozim. Ular tomonidan qabul qilinayotgan axborotlar oqimi va sig'imining ko'pligi inson ma'naviy-axloqiy tushunchalarining oziqlanadigan manbasi adabiyot bilan ham to'ldirilishi uchun bu fanni o'rgatish metodikasidan doimiy izlanish, takomillashib borish talab etiladi. Bizning bitiruv-malakaviy ishimiz adabiyot o'qituvchilarining pedagogik faoliyatimizda shunday vazifa bajaradi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996.
1. Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-tom. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni”, 1992. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, “Sharq” nashriyot matbaa kontserni, 1999.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, 1997-yil, 29- avgust. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa kontserni, 1999 -y.
4. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi Ona tili, Adabiyot (5-9-sinf), O‘zbek tili (2-9-sinf). Toshkent, 2017-yil.

I. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. Q.Yuldoshev. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996.
1. A.Zununov. N. Hotamov. J. Esonov. Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi” 1993.
2. K.Yo‘ldoshev, O.Madaev, A. Abdurrazoqov. Adabiyot o‘qitish metodikasi, dasturiy qo‘llanma. Toshkent, 1994.
3. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, 2007.
4. A. Zunnunov, N. Hotamov. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1982.
5. M. Mirqosimova. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari epik asarlarni o‘rganish «Til va adabiyot ta’limi, 2003, 2-son, 28-33-betlar.
6. Z.Hamidov. Navoiy ijodidagi ayrim she’riy san’atlarni o‘rgatish xususida Til va adabiyot ta’limi, 2003, 1-son,15-18-betlar.

7. A.Zunnunov. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992.
8. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. 1-жилд. Т., 2015.
9. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. Т.: Kamalak, 2016.
10. Sharq mumtoz poetikasi (tuzuvchi H.Boltaboyev). Т.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2006; 2008.
11. Dilnavoz Yusupova, Til va adabiyot ta’limi jurnali. 2017-yil 10-son.

II. Internet manbalari:

1. www.edu.uz
2. [www.o‘zbek adabiyoti.com](http://www.o‘zbek.adabiyoti.com)
3. www.ziyouz.uz
4. www.tdpu.uz